



UDK:314.74

Abdurasul MAMATQULOV,
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: mamatqulovabdurasul162@gmail.com

PhD U.Muxtarov taqrizi asosida

MIGRATSIYA SIYOSATI VA MILLIY MIGRATSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Аннотация

Ushbu maqolada Migratsiya muammosi hozirgi kunda jamiyatning iqtisodiy hayotini, balki ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, diniy-axloqiy soxalariga va bularga bog'liq tarzda jamiyat a'zolarining oilaviy munosabatlariga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya, ijtimoiy, madaniy, din, axloq, oila, iqtisod, tendensiya, urf - odatlar.

МИГРАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА И НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ МИГРАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация

В данной статье рассматривается влияние современной миграционной проблемы на экономическую жизнь общества, а также на социально-политическую, культурно-духовную, религиозно-нравственную сферы, и, в свою очередь, на семейные отношения членов общества.

Ключевые слова: Миграция, социальная, культурная, религия, мораль, семья, экономика, тенденция, обычаи.

MIGRATION POLICY AND DIRECTIONS AND PROSPECTS OF IMPLEMENTING NATIONAL MIGRATION POLICY

Annotation

This article discusses the problem of migration, which currently affects not only the economic life of society, but also socio-political, cultural-spiritual, the religious and moral spheres and their related impact on the family relationships of members of society are highlighted.

Key words: Migration, social, cultural, religion, morality, family, economy, trend, customs.

Kirish. Migratsiya muammosi hozirgi kunda nafaqat jamiyatning iqtisodiy hayotini, balki ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, diniy-axloqiy soxalariga va bularga bog'liq tarzda jamiyat a'zolarining oilaviy munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida mehnat migratsiyasi muammolariga katta e'tibor qaratgan.

Prezidentning fikricha, "Bugungi globallashuv jarayonida migratsiya masalasi dunyo miqyosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb vazifalaridan biriga aylangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda dunyoning turli mamlakatlarida yashayotgan migrantlar soni 281 million nafardan oshgan. Ularning aksariyati uchdan ikki qismi sayyoramizning rivojlangan mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi"[1].

Hozirgi kunda iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda, albatta migratsiya hozirgi kunda jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omiliga, uning mohiyatini belgilab beruvchi xususiyatiga aylandi. Ma'lumki, migratsiya jarayonlari jamiyat taraqqiyoti natijasida muntazam amalga oshib kelgan. Migratsiya iqtisodiy taraqqiyot, kishilarning ehtiyojlarining muntazam ortib borishi, aholining farovonligi oshib borayotganligi, yoshlarning turli madaniyatlar, ta'lim olish, yangi kasb-xunarlarni egallash kabi ijobiy mohiyatga ega bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ko'plab davlatlarda oziq-ovqat, suv tanqisligi, yashash sharoitlarining yomonligi, ishsizlik, kambag'allikning o'sib borishi va shu bilan birga tabiat bilan bog'liq bo'lgan turli kataklizmlar, iqlimning yomonlashib borishi kabi salbiy omillar bilan ham bog'langan.

Umumiy qilib aytganda, migratsiya jarayonining turli shakllari mavjud. Keng tarqalgan migratsiya – mehnat migratsiyasidir. Migratsiyaning bu turi tobora ommalashib borayotgan bo'lib, dunyo mamlakatlarining deyarli hammasida uning ta'siri sezilmoqda. Hozirgi davrda ayrim davlatlarga borib ishlash va yashashga intilish kuchli bo'lsa, boshqalaridan aholining turli qatlamlarining ketishi tobora ortib borayotganligining guvoni bo'lyapmiz. Migratsiya bilan bog'liq jarayonlar va ularning natijalari, dinamikasi va tendensiyalari doim o'zgarib turadi. Migratsiyaning amalga oshishi davrida muntazam o'zgarib borayotganligi turli davlatlarning, mintaq va ma'lum hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, mazkur xududlarda yashayotgan millatlarning milliy madaniyati, urf - odatlari kabilarga ziddiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan kelib chiqadiki, hozirgi kunda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini shakllantirish, uning barcha tomonlarning manfaatlariga mos keladigan qonuniy asoslarini ishlab chiqish ham bu boradagi muhim muammolardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Migratsiya jarayonining zamonaviy mohiyatini to'g'ri anglab yetish uchun mazkur obyektiv jarayonning yuzaga kelishi va uning evolyusiyasi, migratsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar, zamonaviy migratsiyaning turlari va tendensiyalari, uning jamiyatning turli sohalariga ta'siri va istiqbollari o'rganish ham amaliy, ham nazariy jihatdan muhim hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, migratsiya jarayonlari ko'proq iqtisodiy, siyosiy, geografik nuqtai nazardan uzoq davrlardan beri o'rganib kelinadi. Shunga ko'ra migratsiyani ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etish, uning mohiyatini va zamonaviy

tendensiyalarini o'rganish bizningcha, quyidagi nazariy asoslarga tayanishi zarur:

migratsiya – obyektiv va qonuniy jarayon;

migratsiya jamiyat taraqqiyoti asosida kengayib va rivojlanib boradi:

turli davlatlar va millatlar obyektiv ravishda migratsiya jarayonlariga tortiladilar;

migratsiya mohiyatiga ko'ra iqtisodiygina emas, madaniy mohiyatga ham ega:

migratsiya ziddiyatli jarayon;

migratsiya turli millatlarning madaniyati, ma'naviyati, axloqi, milliy ongiga ta'sir etib, ularni o'zgartirmoqda;

migratsiya zamonaviy oilaviy munosabatlarga kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

Migratsiya jarayonlarining oilaviy munosabatlarga ta'siri, zamonaviy oilaviy munosabatlarni o'zgarib borishida va hatto transformatsiyaga uchrayotganligida uning ro'lini o'rganish zamonaviy o'zbek oilasining mohiyatini, xususiyatlarini anglab yetish, milliy oilaviy munosabatlarni saqlab qolish, milliy oilaning asrlardan beri tarixiy shakllanib, avlodlarning ma'naviy merosiga aylanib qolgan qadriyatlarini asrab avaylash jamiyat taraqqiyotining muhim milliy-ma'naviy omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Migratsiyaning kelib chiqish tarixiga e'tibor bersak, uning ildizlari uzoq tarixiy taraqqiyot bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Tarixchi olim B.Eshov O'zbekistonda davlatchilik va boshqaruv tizimining yuzaga kelishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti va tarixiy taqdiri o'zaro bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. "Ta'kidlash lozimki, qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. O'rta Osiyo, umuman, Qadimgi Sharqdagi qadimgi davrlarda bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar karvon yo'llari kesishgan hududlarda joylashgan qadimgi O'zbekistonga ham o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazgan. Shuningdek, o'lkamiz hududlarida mavjud bo'lgan qadimgi madaniyatlar qo'shni o'lkalarga ham o'z ta'sirini o'tkazganligi shubhasizdir"[2].

Vatanimiz qadimdan boshlab, migratsiya jarayonlarining amalga oshadigan hududi bo'lib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti natijasida dastlabki mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, chorvachilik, dexqonchilik va hunarmandchilikning yuzaga kelishi, keyinroq qishloq xo'jaligi va sanoatning ajralib chiqishi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanib borishi zamirida migratsiya jarayonlari shakllana boshladi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot bilan birga migratsiya obyektiv ravishda muntazam chuqurlashib va kengayib bordi. Migratsiyaning ichki va tashqi shakllari yuzaga keldi.

Falsafiy nuqtai nazardan migratsiya obyektiv jarayon bo'lib, u qadimgi davrdan boshlab turli jamiyatlar, xududlar o'rtasida paydo bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan. Migratsiyaning sabablari turlicha: iqtisodiy, siyosiy, ekologik, oilaviy, o'qish va inson sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan va xokazo sabablarni keltirish mumkin.

Qadimgi yozma manbalar, turli tillarning shakllanishi, afsonalar va rivoyatlarning paydo bo'lishi kabilar qadimgi migratsiya jarayonlari to'g'risida ma'lumotlar beradi. Migratsiyaning paydo bo'lishi, evolyutsiyasi, zamonaviy xususiyatlari va rivojlanishi to'g'risida turli ilmiy nazariyalar shakllandi. Ular qadimgi davrda turli xalqlar va elatlarning skiflar, turkiylar va boshqa qabilalarning hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan "buyuk ko'chish" deb nom olgan va keyinroq Yevropa axolisining ko'payib borishiga sabab bo'lgan migratsiyani, zamonaviy migratsiyaning ziddiyatli xususiyatlarini aks ettiradi.

Turli jamiyatlar va xalqlar hayoti va taraqqiyotining o'zaro dialektik aloqadorligi ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan. Fikrimizcha, mazkur

ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy bog'liqlikda migratsiya jarayonlari ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bir umumiy geografik mintaq – O'rta Osiyoda yashab kelgan qo'shni xalqlar, elatlar va qabilalarni bir-biriga yaqin bo'lgan madaniyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy jarayonlar, umumiy va madaniy etnik ildizlar birlashtirib turgan. Shuning uchun ham qadimgi davrlardan boshlab O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taqdiri bir-biriga uzviy bog'langan"[3].

Albatta, migratsiya obyektiv ijtimoiy jarayon sifatida ziddiyatli mohiyatga ega. Uning natijalari, ya'ni ijobiy jihatlari hamda oqibatlari, ya'ni salbiy jihatlari yuzagak yeladi va mavjud ijtimoiy hayotga va kishilarning turmushiga ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bunda ayrim davlatlar arzon ishchi kuchiga ega bo'lsa, boshqalari axolining ketishi hisobiga ishchi kuchini yo'qotgan bo'lishi va mehnat qiluvchi axolining o'sish jarayonlari ham to'xtashi mumkin. Migratsiya jarayonlarining kengayib va migrantlar sonining tobora ortib borishi turli davlatlarda iqtisodiy yoki siyosiy muammoalarga sabab bo'lishi ham mumkin. Masalan, hozirgi kunda Markaziy Osiyodan, xususan O'zbekistondan Rossiya bori b mehnat qilayotgan migrantlar sonining ortib borayotganligi nafaqat Rossiya uchun, balki O'zbekiston uchun ham ayrim iqtisodiy, siyosiy va madaniy muammolarga sabab bo'lmoqda. Qadimda migratsiyaning yuzaga kelishi tabiiy, o'zining taraqqiyot qonuniyatlari asosida yuzaga kelgan. Bu xaqda turli arxeologik tadqiqotlar asosida xulosalar qilish mumkin. Keyinroq iqtisodiy munosabatlarning kengayib borishi hamda bu jarayonga turli davlatlar va subyektlarning aralashuvi natijasida migratsiya jarayonlari ko'p xollarda sun'iy xususiyat kasb eta boshlagan. Hozirgi kunda migratsiya jarayonlarining ziddiyatli xususiyati ortib bormoqda.

Albatta, migratsiya jarayonlari jamiyatning barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu holatda migratsiya jarayonlarining iqtisodiy, siyosiy, ta'lim va boshqa sohalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Xususan, migratsiya eng avvalo, jamiyat a'zolarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlanishi asosida ularning moddiy axvolining o'sib borishini ta'minlaydi.

Zamonaviy migratsiya yoshlarning sifatli ta'lim olib, dolzarb kasblarni egallashiga, jamiyatda o'z o'rnini topa olishiga ijobiy ta'sir etadi. Migratsiya ko'p xollarda ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik, madaniy va boshqa innovatsiyalar, texnologiyalar, madaniyat elementlari, tajribalarning tarqalishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon ayrim xollarda turizmning, milliy turizmning ham tarqalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Migratsiya pirovardida migrantlarning boshqa davlatlarda mehnat qilib faoliyat olib borishi natijasida tashqi migratsiya kuchli bo'lgan davlatlarning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Ko'rinib turibdiki, migratsiyaning yuqorida qayd etilgan jixatlari jamiyatning taraqqiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy yuksalib borishiga, uning rivojlanish dinamikasini tezlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Antropologik nuqtai nazardan migratsiya jarayoni insonning taraqqiyotini, ya'ni uning erkinlikka intilishdek tabiiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan va uning taraqqiyotga intilishini, salohiyatining muntazam yuksalib borishini, yangi texnologiyalarni, imkoniyatlarni qidirish, ulardan unumli va maqsadli foydalanish, ehtiyojlarining ortib borishini hamda ularning qondirilib borishini anglatadi.

Zamonaviy migratsiya jarayonlari inson resurslarini to'g'ri taqsimlash, yangi ish joylarini yaratish va shu bilan birga zamonaviy milliy oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish va ularni tartibga solish muammolari bilan o'zaro bog'liq. Mazkur muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko'payib borishi hamda turli konferensiyalar va boshqa tadbirlarning o'tkazilishi bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar yaratilmoqda. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan umuman

migratsiyaning yuzaga kelishi, uning obyektiv ijtimoiy jarayon sifatida evolyutsiyasi jamiyat va uning a'zolarining ko'p tomonlama tabiiy dinamikasini va taraqqiyotini anglatadi.

So'nggi yillarda ishlash, migratsiya va oilaning o'zaro bog'liqligi muammolari jamiyat va uning a'zolarining muxim munosabatlariga aylandi. Bunga bog'liq ravishda migratsiya va uning milliy oilaga ta'siri zamonaviy ijtimoiy – madaniy jarayonlarning ham mohiyatini o'zgartirmoqda. Bu jarayonda ko'p hollarda oila va oilaviy qadriyatlar emas, aksincha, oilaning moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun qayerda bo'lsa ham ishlab pul topish migratsiya va u bilan bog'liq bo'lgan xodisalar doirasida yetakchi o'ringa chiqib qolmoqda. Migratsiya jarayonlarining zamonaviy subyektlari faqat erkaklardan tashkil topgan emas. Xozirgi kunda axolining katta qismini tashkil etuvchi ishlash yoshida bo'lgan ayollar ham migratsiya jarayonlarini tezlashtirib borayotgan katta kuchga aylangan.

Migratsiya aytib o'tilganidek, ziddiyatli mohiyatga ega bo'lganligi sababli bu jarayonning obyektiv ravishda oila va oilaviy munosabatlarga ta'siri ziddiyatli yoki salbiy xususiyatga ega bo'ladi. Xususan, ota-ona va bolalarning psixologik, xissiy munosabatlariga, nisbatan bir-biridan yiroqlashuvi va natijada milliy oilaviy madaniyat va qadriyatlarning ham asta – sekin qadrsizlanib borishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayonda bolalarning milliy tarbiyasi ham o'z xususiyatlarini yo'qotib borishi tabiiy. Hozirgi davrda O'zbekistonda va umuman Markaziy Osiyoda yosh oilalarda ajralishlar sonining ko'payib borayotganligining jiddiy sabablaridan biri migratsiya hisoblanadi. Ish va oilani yonma-yon qo'yigan xolda qaysi biri muhimroq, degan savolni bersak, ko'pchilik ish muhimligini ta'kidlaydi. Ular oilaning tinchi, moddiy manfaatlari va uning ehtiyojlarini qondirish albatta, ish bilan bog'liq ekanligini aytadilar. "Hozir ofisda ish ko'p, lekin keyingi oyda ishlar ancha kamayadi va men uyga ertaroq qayta olaman", degan fikrlar barcha xodimlarning hayolida turadi va bu fikrlar erlarning ayollariga va ayollarning erlariga aytadigan umuiy so'zlari bo'lib, ular kelasi oyda ham xuddi shunday juda band bo'lishini biladilar"[4].

Yoshlar uchun oila ko'p hollarda har kuni bir xil ishlarni bajarilishi zarur bo'lgan qisman zerikarli joyga aylanib bormoqda. Agar oila bilan ish joyini solishtirsak, ko'p xollarda ish joyida xizmat ko'rsatishning yuqoriligi, vaqtning chegaralanganligi, ayrim texnologik va boshqa sharoitlarning mavjudligi, o'zaro ish va boshqa muammolar bo'yicha gurux a'zolari bilan o'zaro muloqot va mavjud muammolarning muhokama qilinishi, ish faoliyatining natijasida yangi moddiy yoki boshqa maxsulotning yaratilishi, jamoaviy yoki guruxning muammolari va ularning xal etilishi kabi ish jarayonida yuzaga kelayotgan sharoitlar va o'zaro munosabatlar oila va oilaviy munosabatlarga nisbatan zamonaviy inson uchun tobora qiziqroq va muhimroq bo'lib bormoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ishlovchi erkaklar va ayollar so'nggi vaqtda ish joyida oiladagaga nisbatan ko'proq vaqtini o'tkazishga intilmoqdalar. Bu jarayon ba'zan ish bilan bog'liq ravishda, ba'zan esa ishning oiladan ko'ra muhimroq bo'lib borayotganligi bilan ham bog'liq. Bunday oila-ish munosabatlarida ko'p xollarda ish oiladan afsuski, ustun bo'lib bormoqda. Ko'p hollarda kishilar bunday hatti-

harakatlarini "men oilam uchun ishlayapmanku", "ko'proq pul topishga harakat qilyapmanku", kabi mulohazalar bilan oqlashga intiladilar.

Kelajakni o'rganish muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi futurolog olim Rolf Yensen oilaviy munosabatlarning kelajagi bo'yicha uch xil senariy to'g'risida fikr yuritadi: birinchisi, ish asosiy o'rinda va oila ikkinchi o'rinda; ikkinchisi, oila asosiy o'rinda va ish ikkinchi o'rinda; uchinchisi, oila qadriyatlar va ish deyarli bir xil darajada ahamiyatli bo'lishi mumkin. Lekin ikkinchi va uchinchi holatga erishish zamonaviy ehtiyojlar va munosabatlardan kelib chiqib, juda murakkab bo'lib borayotganligi aniq.

Mazkur jarayonlarda migratsiya, ishlash oilaviy qadriyatlarini ko'p hollarda siqib chiqaradi. Albatta, ish bilan oilaviy munosabatlarni mutanosibligini saqlash va unga amal qilish milliy qadriyatlar, oilaviy qadriyatlar va oilaviy munosabatlarni saqlab qolishga katta imkon yaratadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar zamonaviy ijtimoiy konfliktlardan biri xisoblanadi. Chunki bir tomondan, tabiiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun mexnat qilish zarur, ikkinchi tomondan, mexnat qilish va migrant bo'lish bilan birga milliy va oilaviy qadriyatlarini saqlab qolish zarur. Zamonaviy ish faoliyati, zamonaviy turmush tarzi ma'lum ma'noda oila va oilaviy munosabatlarni siqib chiqarmoqda, deb ta'kidlash mumkin.

Zamonaviy xodimlar, ular qaysi soxada faoliyat ko'rsatmasin, 10-15 yil avval mexnat qilgan xodimlardan keskin farq qiladi. "Raqamli texnologiyalar hamda global kommunikatsiya infratuzilmalari ish va unga haq to'lash borasidagi an'anaviy tushunchalarni sezilarli o'zgartirib yuboradi. Natijada o'ta moslashuvchan va o'tkinchi tabiatli yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi (talabga asoslangan iqtisodiyot. Yangi paydo bo'layotgan ushbu ish o'rinlari odamlarga moslashuvchanroq ish jadvalidan foydalanish imkonini berib, mehnat bozorida innovatsiyalarning yangi to'loqiniga sabab bo'ladi. Biroq, masalaning boshqa tomoni ham bor. Talabga asoslangan iqtisodiyotda har bir ishchi shartnoma asosida ishlaydigan pudratchiga aylanib, doimiy kafolatlangan va uzoq muddatli ish bilan ta'minlanishdan manfaatdor bo'lmay qoladi"[5]

Xulosa va takliflar. Hozirgi davrda kishilarning hayotida oila va oilaviy munosabatlarga nisbatan ish tobora muhim o'rin egallab borayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Oilaviy munosabatlar va ularning qadriyat sifatida namoyon bo'lishi ish, insonlarning band bo'lishi va ularning ta'siri ostida qolayotganligi aniq. Bu jarayonlar o'ta ziddiyatli, chunki oilaning ehtiyojlarini qondirish uchun bir tomondan, ishlash va yetarli pul topish zarur va ikkinchi tomondan, oilaning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarini ham qondirilishi, oilaviy qadriyatlar, o'zaro munosabatlar, bolalarga mehr ko'rsatish kabilar bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratish zarur.

Yuqorida tavsiflab o'tilgan jarayonlarga kommuni-katsiyaning kengayib borishiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy texnologiyalarning taraqqiyotini hisobga olsak, oilaviy munosabatlar va ularning milliy qadriyatlarini saqlab qolishga qaratilgan funksiyalari katta ta'sir ko'rsatayotganligi aniq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi "O'zbekiston" Toshkent.: 2023.-B 443
2. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. –Toshkent.: 2012.-B 6-9
3. Ролф Йенсен "Общество мечты". Стокгольмская школа экономики в Санкт Петербурге., 2004.-С.154.
4. Клаус Шваб. Түртинчи саноат инқилоби.Т.:NIHOL, 2022.-Б.113.
5. Alimov S.K. Migratsiya jarayoni zamonaviy tendensiyalarining falsafiy tahlili.
6. Xolmirzayev N.N. Urbanizatsiya muammolarini bartaraf etish yuzasidan hayotiy takliflar // Экономика и социум. 2024. №2-1.